


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV TA'LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**



**MALAKAVIY AMALIYOT**  
**DASTURI**  
**(72 soat)**  
**(3-kurs)**

**Bilim sohasi:** 100 000 – Ta'lim  
**Ta'lim sohasi:** 110 000 - Ta'lim

**Ta'lim yo'nalishi:** 60111800 - Xorijiy til va adabiyoti  
(ingliz tili. Kunduzgi va kechki ta'lim talabalari uchun)

**Toshkent – 2023**

Amaliyot dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 25-avgustdagi 744-sonli buyrug'i bilan kelishilgan o'quv rejasiga muvofiq ishlab chiqildi.

Fan dasturi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Kengashining 2023-yil 28-avgustdagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

**Tuzuvchilar:**

Umarova M.Yu - "Ingliz tili nazariy aspektlari №1" kafedrasini mudiri,  
filologiya fanlari doktori, dotsent

Abduvahabova M.A. - "Ingliz tili nazariy aspektlari № 2" kafedrasini mudiri, F.f.b.f.d  
(PhD), dotsent

Axmadaliyeva X. A - "Ingliz tili nazariy aspektlari №3" kafedrasini mudiri,  
P.f.b.f.d (PhD), v.v.b dotsent

Djabbarova Q. - "Ingliz tili nazariy aspektlari № 1" kafedrasini katta  
o'qituvchisi

**Taqrizchilar:**

Irisqulov M. - Oriental univertiteti g'arb tillari kafedrasini v.v.b professori

Axmedov O. - "Ingliz tilini o'qitish metodikasi № 2" kafedrasini professori, f.f.d

O'zDJTU ingliz tili 2-fakulteti dekani:  
2023-yil " " "



B.Kulmatov



## **Kirish**

Nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash oliy ta'lim samaradorligini oshirishning xalqaro tajribada sinalgan usullaridan biridir. Amaliyotning har qanday turi malakali mutaxassislar tayyorlashning ajralmas qismi hisoblanadi. Mazkur dasturda o'quv jarayoni jadvaliga muvofiq 60111800-Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo'nalishida kunduzgi va kechki bo'limlarda tahsil olayotgan uchinchi bosqich talabalari uchun rejalashtirilgan o'quv-tanishuv amaliyotini o'tkazish tartibi yozilgan.

### **O'quv-tanishuv amaliyotining maqsadi va vazifalari**

O'quv-tanishuv amaliyotining maqsadi quyidagilardan iborat:

- Talabalarning xorijiy tillar bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarini (til o'rganishning 4 kompetensiyasi) kundalik va kasbiy faoliyatda samarali qo'llashga o'rgatish;
- Umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan olgan bilimlarini rivojlantirish, mustahkamlash va ko'nikmalarni shakllantirish;
- Ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga ta'alluqli me'yoriy hujjatlar bilan tanishish:
  - DTS
  - O'quv dasturi
  - Dars rejasi
  - Kalendar-tematik reja
  - Foydalanilgan adabiyotlar
  - Baholash tizimi
- Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish usullari bilan tanishish, chet tilini o'qitish metodlarini o'zlashtirish va qayta ishlash ko'nikmalarini shakllantirish;
- Kelgusidagi kasbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan dastlabki amaliy ko'nikmalarni egallash

### **Amaliyotning vazifalari**

- Talabalarda pedagogik qobiliyatni shakllantirish (tashkiliy, kommunikativ, izlanuvchanlik, konstruktiv loyihalash, rivojlantiruvchi);
- O'qituvchi shaxsiyatiga xos bo'lgan professional xususiyatlarni rivojlantirish;
- Pedagogik faoliyatda o'z ustida tinimsiz ishlashning zaruriyatlarini uqtirish hamda kelajakdagi kasbiga nisbatan qiziqishini orttirish;
- Umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan olgan bilimlarini mustahkamlash va pedagogik muammolarni hal etishda ulardan foydalanishga o'rgatish;
- Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish
- Ta'lim muassasalari o'quv-tarbiyaviy faoliyatining hozirgi holati bilan yaqindan tanishtirish;

## Amaliyot muddati va o'tkazilish ob'ektlari

O'quv jarayoni jadvaliga ko'ra 60111800-Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo'nalishida tahsil olayotgan uchinchi bosqich talabalari uchun o'tkaziladigan o'quv-tanishuv amaliyoti 4 haftani (72 soat) tashkil etadi. Joriy o'quv yili amaliyot 2023-yil 29-yanvardan 24-fevralga qadar davom etadi. Universitet axborot-resurs markazi, mutaxassislik kafedralari va tegishli umumta'lim maktablari, O'zDJTU qoshidagi akademik litsey, tilga ixtisoslashgan maktablar amaliyot obyekti hisoblanadi. Amaliyot quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- Universitetning mutaxassislik kafedralarida amaliyot uchun muhim bo'lgan o'quv dasturlar va materiallar bilan tanishtirish (amaliyotning 1 haftasi)
- Tegishli umumta'lim maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarida olib boriladigan dars kuzatuvlari uchun ko'rsatmalar berish
- Hujjatlarni yig'ib olish, bilim, ko'nikma va ta'surotlarni muhokama qilish
- Tegishli umumta'lim maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarida dars kuzatuvlari va portfolio tayyorlash (2 va 4 hafta davomida)

## Amaliyot davrida amalga oshiriladigan ishlar taqsimoti

Hafta	Mavzu	Soat	Kun	Imzo
1-hafta	<ol style="list-style-type: none"><li>1. Pedagogik amaliyot oldi anjumanida ishtirok etish, amaliyotning maqsad va vazifalari, ish rejasi va topshiriladigan hujjatlar bilan tanishish</li><li>2. O'quv muassasa bilan tanishish va o'rganish: o'quv muassasa direktori, o'qituvchi va o'quvchilar jamoasi, ish tartibi, me'yoriy hujjatlar hujjatlar bilan ishlashni o'rganish</li><li>3. Maktab axborot resurs markazidan foydalanishni o'rganish</li><li>4. Maktabda turli amaliy darslarni kuzatish</li><li>5. Maktabda sinf rahbarligidagi tarbiyaviy soatlarni kuzatish</li><li>6. Ingliz tili o'qituvchilariga talabalarni biriktirish va ularning darslarini kuzatishlarini nazorat qilish</li><li>7. Sinf jumalining yuritilishi va maktabda baholash tizimini o'rganish</li></ol>	18		



	<p>8. O'quv muassasa bilan tanishishni davom ettirish: o'quv va tarbiyaviy ish rejalari bilan tanishish, o'rganish va nusha olish</p> <p>9. Maktabda tashkil etilgan fan to'garaklari bilan tanishish</p> <p>10. Talabalar tomonidan kuzatilgan darslarning universitet tomonidan birlashtirilgan amaliyot muhokamasi</p> <p>11. DTS, o'quv dasturlari, CEFRga asosan B1 (10-11-sinflar) qo'yiladigan talablar</p> <p>12. 9-sinf ingliz tili darsligi, tarkibi, o'quv rejaga mosligi mazmuni bilan tanishish (Units and topics)</p> <p>13. 10-sinf ingliz tili darsligi, tarkibi, o'quv rejaga mosligi mazmuni bilan tanishish (Units and topics)</p> <p>14. 11-sinf ingliz tili darsligi, tarkibi, o'quv rejaga mosligi mazmuni bilan tanishish (Units and topics)</p> <p>15. 9-sinfda olib borilayotgan darslarni amaliyot rahbari bilan birga kuzatib tahlil qilish</p> <p>16. 10-sinfda olib borilayotgan darslarni amaliyot rahbari bilan birga kuzatib tahlil qilish</p> <p>17. 11-sinfda olib borilayotgan darslarni amaliyot rahbari bilan birga kuzatib tahlil qilish</p> <p>18. Seminar guruhlarida 9-sinf darsligi bo'yicha talabalarning amaliyot darslar o'tishlarini tashkil qilish va tahlil qilish (Peer observation), talaba talabani o'qituvchi sifatida baholash</p> <p>19. Seminar guruhlarida 10-sinf darsligi bo'yicha talabalarning amaliyot darslar o'tishlarini tashkil qilish va tahlil qilish (Peer observation), talaba talabani o'qituvchi sifatida baholash</p> <p>20. Seminar guruhlarida 11-sinf darsligi bo'yicha talabalarning amaliyot darslar o'tishlarini tashkil qilish va</p>			
--	--	--	--	--

	tahlil qilish(Peer observation), talaba talabani o'qituvchi sifatida baholash 21.Talabalarning o'zaro darslari tahlillari muhokamasi			
<b>2-hafta</b>	1. Faol amaliyotni boshlash: chet tili va boshqa fanlardan darslar kuzatish va tahlil qilish. 2. Tuzilgan dars rejalari asosida amaliy darslarni o'tish. 3. Sinf (guruh) rahbarining ma'naviy-ma'rifiy ish rejasi asosida tadbir tashkil etish va tayyorgarlik ko'rish 4. Tuzilgan dars rejalari asosida amaliy darslarni o'tishni kuzatish va tahlil qilish.	18		
<b>3-hafta</b>	1. Chet tili va boshqa fanlardan darslar kuzatish va tahlil qilish. 2. O'zaro ochiq darslarni o'tkazish, tashrif buyurish, kuzatish, tahlil qilish. 3. Ochiq darslarga tarqatma materiallar tayyorlash va amaliy darslarni o'tish. 4. Pedagogik amaliyot bo'yicha berilgan topshiriqlar asosida hujjatlarni tartibga solish.	18		
<b>4-hafta</b>	1. O'zaro ochiq darslarni o'tkazish, tashrif buyurish, kuzatish, tahlil qilish. 2. Ochiq darslarga tarqatma materiallar tayyorlash va amaliy darslarni o'tish. 3. Pedagogik amaliyotning hisobot anjumaniga guruh hisobotini tayyorlashda faol ishtirok etish. 4. Amaliyot yakunida topshiriladigan hujjatlar bilan ishlash. 5. Reflektiv yozuv	18		
	Jami:	72		

### **Amaliyot bo'yicha talabalar bilim va ko'nikmalarini baholash va nazorat qilish me'zonlari**

Talabalar bilimini baholash O'zbekiston respublikasi oliy va o'rta masus ta'lim vazirligining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018 sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan. "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash to'g'risidagi Nizomi"ga ko'ra 5 baholik tizimda amalga oshiriladi.



Talabalar amaliyoti har hafta davomida baholab boriladi. Talabalar amaliyot davrida kuzatgan darslari asosida hisobot tayyorlaydilar. Barcha hujjatlar amaliyot rahbari tomonidan qabul qilinadi va baholanadi. Yakuniy nazorat talabalarning 1 va 3-hafta davomida seminar treyninglarida ishtiroki va dars kuzatmalari hamda hisobot natijalari asosida baholanadi.

### Baholash mezonlari

Dars kuzatuv hisobotlari(30)
Maktabda ingliz tili darslari bo'yicha o'tkazgan ochiq darsi ishlanmasi va natijasi
O'zaro guruhda 9,10,11-sinflar ingliz tili darsligi bo'yicha o'tkazgan ochiq darsi ishlanmasi va natijasi
Reflektiv yozuv

#### Dars kuzatuv hisobotlari

Ushbu vazifani bajarish uchun talabalardan amaliyot davomida 40ta darsni kuzatish va hisobotlar yozish talab etiladi. Buning uchun talaba quyidagilarni bajarishi lozim:

- Talabaga biriktirilgan mentor-o'qituvchi darsini kuzatish;
- Kuzatuv shaklini (Observation Form) portfolioga joylash
- O'tkazgan ochiq darslari ishlanmasi(dars rejasi, materiallar, ko'rgazmali qurollar, baholash varag'i, o'tilgan darsning videotasma nusxasi) va shu darslarning tahlili bayoni(kuzatuvchilar fikrlari)
- Reflektiv yozuv- Kuzatilgan darslar va amaliyot jarayoni bo'yicha kamida 1000 so'zdan iborat hisobot yozish.

Reflektiv yozuvda quyidagilar bayon etilishi kerak:

- Darsdan oldingi ilk kechinmalar;
- Darsning yutuqlari va kamchiliklari;
- Malakaviy amaliyot davrida o'rgangan bilim va ko'nikmalari;
- Malakaviy amaliyot davrida duch kelgan qiyinchiliklari.
- Qo'shimcha fikr va takliflari.

### O'quv-uslubiy adabiyotlar ro'yxati: Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. Toshkent, O'zbekiston, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining "Uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori. Toshkent, O'zbekiston, 2013.
3. Hoshimov O'., Yoqubov I. Ingliz tili o'qitish metodikasi. – T., 2003.

4. Development for Uzbekistan English Teachers (DUET) 1/2 British Council, Uzbekistan 2009.

**Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi: Chet tillar oliy o'quv yurtlari talabalari (fakultetlari) uchun darslik. –T: O'qituvchi, 2012.
2. Irgasheva Saida, Breverton Byrne and others Being a teacher Trainers' Guidebok.,- Tashkent UzSWLU, 2015.